

# Hakim at-Termiziy shoh ko'chasidagi mavjud kamchiliklar o'rganildi.



Hakim at-Termiziy shoh ko'chasidagi mavjud kamchiliklar o'rganildi.

Termiz shahrini zamonaviy arxitektura talablariga moslash hamda hududlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini davom ettirish maqsadida, bugun shahar hokimi O'ktam To'rayev boshchiligida sektor rahbarlari va aloqador mutasaddilar birgalikda Hakim at-Termiziy shoh ko'chasidagi mavjud kamchiliklarni ko'zdan kechirdi.

O'rganish davomida markaziy ko'cha yoqasida joylashgan xizmat ko'rsatish shoxobchalariga tegishli pannolarning "Reklama to'g'risida"gi qonunga zid holatlarini hamda aniqlangan noqonuniy qurilishlarni amaldagi qonunchilik asosida bartaraf etish yuzasidan mas'ullarga tegishli vazifalar belgilandi.

Shuningdek, ko'p qavatli uylarning fasad qismini bo'yoqlash, trotuarlarni ta'mirlash hamda hududlarni tartibga keltirish va obodonlashtirish ishlarini tashkil etish bo'yicha

mutasaddi rahbarlarga topshiriqlar berilib, ijrosi nazoratga olingandi.








Image not found or type unknown

